



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA SHAXMAT O'YININING PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Turan International University Gumanitar
Fanlar va pedagogika fakulteti 4-kurs talabasi.*

SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Norqo'ziyeva Ravzaxon Murodillayevna

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishida shaxmat o'yinining pedagogik ahamiyati keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida shaxmat mashg'ulotlarining bolalarda mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, xotira, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida shaxmat o'yinini joriy etishning metodik jihatlari va pedagogik shart-sharoitlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxmat, maktabgacha ta'lim, intellektual rivojlanish, mantiqiy fikrlash, bilish jarayonlari, pedagogik texnologiyalar.

Abstract

This article provides a comprehensive scientific analysis of the pedagogical importance of chess in the intellectual development of preschool children. The study substantiates the role of chess activities in developing logical thinking, attention, memory, analytical skills, and independent decision-making abilities. Methodological conditions for implementing chess in preschool education institutions are also discussed.

Keywords: chess, preschool education, intellectual development, logical thinking, cognitive processes.



Kirish

Shaxmat sport turi sifatida – XV asrlik tarixga ega. Farazlarga ko‘ra shaxmat hindlarning “chaturanga” o‘yinidan kelib chiqib, forslar tomonidan o‘zlashtirilgan va o‘ziga xos o‘zgartirishlar kiritilib “shatranj” deb nom berilgan.

VII asrga kelib arablar Eronni egallagandan so‘ng shatranjni Yevropaga tarqalishiga sabab bo‘lishdi. XV asrgacha “shatranj” o‘yinidagi “Farzin” va “Fil”ning harakatlari cheklangan edi, shu davrdan boshlab hozirgi ko‘rinishdagi shaxmat o‘yini shakllana boshladi, o‘yin tezlashdi.

Oqlar o‘yinni boshlab berganligi sababli ular hujumga o‘tish va shaxmat taxtasida eng muhim kataklarni egallash bo‘yicha ustunlikka ega bo‘ldilar. Shaxmat o‘zining zamonaviy ko‘rinishiga taxminan 1475 yilga borib taqaladigan qoidalarga kiritilgan ikkita o‘zgarishlar tufayli keldi, bu o‘zgarishlar farzinni shaxmat taxtasining istalgan katagiga xoxlagan yo‘nalishda yura olishi bo‘lib bu o‘zgarish shaxmat taxtasida farzinni eng kuchli shaxmat donasiga aylantirdi. Shu bilan birga fil ham shaxmat taxtasida diagonal yo‘nalishda istalgan katakka harakatlanishi mumkin bo‘ldi. Ushbu o‘zgartirishlar shaxmat o‘yinini tubdan o‘zgartirib uni jozibadorligini oshirdi.

XIX asr o‘rtalariga kelib shahar va davlatlarning eng kuchli shaxmatchilari o‘rtasida, asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, xalqaro turnirlar ko‘rinishida musobaqalar paydo bo‘ldi. 1886 yili avstriyalik shaxmatchi Vilgelm Steynis nemis shaxmatchisi Iogann sukertortni mag‘lub etib shaxmat bo‘yicha birinchi jahon chempioni deb e‘lon qilindi. Shu davrdan boshlab jahon birinchiliklari tarixi boshlandi, 1924 yilga kelib Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tashkil etildi. 1946 yil to‘rtinchi jahon chempioni Aleksandr Alyoxin vafotidan keyin jahon chempionatlari Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) ta’sis etgan qoida va tartiblarga ko‘ra o‘tkazila boshlandi.



Bizning ajdodlarimiz ham o'z vaqtida shatranjda katta yutuqlarga erishgan. Buyuk jahongir bobomiz Amir Temur ham shatranjni juda yaxshi o'ynagan va muntazam ravishda o'z saroyida shatranj bo'yicha musobaqalar o'tkazib turgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan beri shaxmat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablar, kasb xunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlaridagi sport musobaqalariga kirib bordi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohatlar, yangi sport inshootlari barpo etish, ta'lim tarbiya jarayonlariga yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim uslublari bilan birga shaxmat mashg'ulotlarini joriy etish ko'zda tutilmoqda

O'zbekiston va boshqa 22 ta mamlakat tashabbusi bilan 2019-yil 2-dekabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining shaxmatni rivojlantirish bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi va unga muvofiq 20-iyul Butunjahon shaxmat kuni deb e'lon qilindi.

Shaxmat sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinganda, aksariyat hollarda, yoshlarni maktabgacha davridanoq shaxmatchi sifatida tayyorlash orqali professional va kuchli shaxmatchi bo'lib yetishib shakllanishini ko'rishimiz mumkin.

20-asrning 90-yillaridan O'zbekiston shaxmatida yuksalish boshlandi. erkaklar terma jamoasi jahon shaxmat olimpiadasida 2-o'rinni egalladi (1992), Osiyo chempionatida g'alaba qozondi (1999). Ibrohim Hamroqulov o'smirlar o'rtasida jahon birinchiligida g'olib chiqdi (1998). Rustam Qosimjonov Osiyoning birinchi (1998), jahonning 17-chempioni (2004) bo'ldi.

So'nggi yillarda xalqimizning salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan sport turi bo'lgan va mamlakatimizda alohida o'rin tutadigan sportning shaxmat turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi PQ-4954-sonli qarori "Shaxmatni



yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2023 yildagi PQ-150-sonli 2026-yil "O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim amaliyotida intellektual o'yinlar, xususan shaxmat o'yinidan foydalanishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shaxmat o'yini o'zining mantiqiy tuzilishi va strategik xususiyatlari bilan bolalar tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning bilish jarayonlari, tafakkuri, nutqi va ijtimoiy moslashuvi jadal rivojlanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Bu jarayonda intellektual rivojlanishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxmatni 2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar dasturi O'zbekistonda shaxmat tizimini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda uni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga shaxmatni soddalashtirilgan tarzda o'rgatuvchi animatsion materiallar va o'quv qo'llanmalarni yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini shaxmatga qiziqtirish va o'rgatish bo'yicha "Shaxmat bog'chadan boshlanadi" maxsus dasturini amalga oshirishni tizimli yo'lga qo'yildi. Har yili maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Shaxmat festivali" musobaqalarini o'tkazib borilmoqda.

Xulosa



Shaxmatchi - jismoniy hujumlarga javob bera olmaydigan va o'zini himoya qila olmaydigan, qo'ltig'ida shaxmat taxtasi bo'lgan ko'zoynakli ingichka odam degan stereotipni rivojlantirgani bejiz emas. Shaxmat foydali bo'lishi uchun, zararli emasligi uchun siz asosiy qoidaga rioya qilishingiz kerak - hamma narsa me'yorida yaxshi. Shuningdek, shaxmat mashg'ulotlari bolalarda diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Figuralarning yurish qoidalarini eslab qolish, doskadagi holatni tahlil qilish orqali bolaning bilish jarayonlari faollashadi.

Tarbiyaviy jihatdan shaxmat o'yini bolalarda sabr-toqat, intizom, mas'uliyat va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu sifatlar bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi PQ-4954-sonli qarori "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2023 yildagi PQ-150-sonli 2026-yil "O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
- 3) Shaxmat olami Mahmud Primqulov : O'zbekiston NMIU 2016:
- 4) Sport.uz net, www.sport.uz
- 5) Kun.uz, kitobxon.uz